




TASHKENT MEDICAL ACADEMY

100 TMA
ANNIVERSARY



Journal of Educational and Scientific Medicine



Issue 5 | 2025



OAK.UZ

Google Scholar

Science Information Committee of the Cabinet
Ministers of the Republic of Uzbekistan

ISSN: 2181-3175



Research Article

Open © Access

OBSTETRIC AND PERINATAL OUTCOMES IN PATIENTS WITH VERIFIED HIV STATUS

ABDULLAYEVA L.M.¹, SAFAROV A.T².,SAFAROVA L.A.³, TUGIZOVA D.I.⁴

¹TASHKENT MEDICAL ACADEMY

^{2,3}TASHKENT STATE DENTAL INSTITUTE

⁴SAMARKAND STATE MEDICAL UNIVERSITY

Email:lolikumida@mail.ru

Introduction: the priority areas of scientific research continue to be the determination of the medical and social characteristics of pregnant women with HIV, the study of the course of pregnancy, childbirth, postpartum and neonatal periods, the identification of risk factors and the development of modern methods for the prevention of perinatal complications in this patient population.

Materials and methods of research: 119 HIV-infected pregnant women who applied to the AIDS Center of Tashkent and maternity complexes of Tashkent No. 1,8,9. general clinical, laboratory, immunological, special obstetric examination, instrumental, general morphological, morphometric, histochemical, morphometric and statistical research methods were used.

Results: In the first half of gestation, 21% (10 women) of the 1st subgroup had a threatening spontaneous miscarriage, while 24% of the patients were hospitalized, 76% received outpatient treatment. In subgroups 2 and 3, the threat of termination of pregnancy was 10 (26%) and 7 (20.6%), respectively. The majority of women, 98 (82.3%), had a full-term pregnancy, 21 (17.6%) had premature birth. The diagnosis of a full-term healthy newborn occurred in 98 (82.4%). 30 newborns (22.2%) had perinatal lesions

Conclusion: According to a retrospective analysis, pregnant women with HIV-positive status have a high rate of obstetric and neonatal complications.

Tasdiqlangan Oiv Tashxisi Bo‘lgan Bemorlarda Akusherlik Va Perinatal Natijalar

Abdullayeva L.M¹.,Safarov A.T²., Safarova L.A.³, Tugizova D.I.⁴

¹Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

^{2,3}Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti

⁴Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Kirish: OIV infektsiyasi bo‘lgan homilador ayollarning tibbiy-ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash, ularda homiladorlik, tug‘ruq, tug‘ruqdan keyingi va neonatal davrlarni o‘rganish, ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va perinatal asoratlarni bashorat qilish chora-tadbirlarining zamonaviy usullarini ishlab chiqish ilmiy-tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

Material va metodlar: Tadqiqotning ob’ekti sifatida Toshkent shahar OITS markazi va Toshkent shahar 1,8, 9-son tug‘ruq komplekslariga murojaat qilgan 119 nafar OIV bilan kasallangan homilador ayollar olingan. Tadqiqotda umumklinik, laborator, immunologik, maxsus akusherlik tekshiruvi, instrumental, umumiyl morfologik, morfometrik, gistolimyoviy va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Natija: Homiladorlikning birinchi yarmida, 1 kichik guruhning 21% (10 ayollar) bemorlarda homila tushish havfi kuzatilgan, 24% gospitalizatsiya qilingan, 76% ambulatoriya sharoitida davolangan. 2 va 3 kichik guruhlarda homiladorlikni to‘xtatish xavfi tegishli ravishda 10 (26%) va 7 (20,6%) tashkil etdi. Ayollarning ko‘pchiligi - 98 (82,3%) nafari to‘liq muddatli homilador bo‘lgan, 21 (17,6%)nafari muddatidan oldin tuqqan. To‘liq muddatli sog‘lom yangi tug‘ilgan chaqaloqning tashxisi 98 ta (82,4%) holatda sodir bo‘lgan. 30 ta yangi tug‘ilgan chaqaloq (22,2%)da asoratlар kuzatilgan.

Xulosa: Retrospektiv tahlil natijalariga ko‘ra, OIV holati ijobjiy bo‘lgan homilador ayollarda akusherlik va neonatal asoratlarning yuqori darajasi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: OIV, homiladorlik, akusherlik asoratlari, perinatal natijalar.

**АКУШЕРСКИЕ И ПЕРИНАТАЛЬНЫЕ ИСХОДЫ У БОЛЬНЫХ С
ВЕРИФИЦИРОВАННЫМ ВИЧ-СТАТУСОМ**

Абдуллаева Л.М¹, Сафаров А.Т.², Сафарова Л.А.³, Тугизова Д.И.⁴

¹Ташкентская медицинская академия

^{2,3}Ташкентский государственный стоматологический институт

⁴Самаркандский государственный медицинский университет

Введение: приоритетными направлениями научных исследований, продолжают оставаться определение медико-социальных характеристик беременных женщин с ВИЧ, изучение течения беременности, родов, послеродового и неонатального периодов, выявление факторов риска и разработка современных методов профилактики перинатальных осложнений у данного контингента больных.

Материалы и методы исследования: 119 ВИЧ-инфицированных беременных женщин, обратившихся в СПИД-центр города Ташкента и родильные комплексы города Ташкента №1,8,9. были использованы общеклинические, лабораторные, иммунологические, специальное акушерское обследование, инструментальные, общеморфологические, морфометрические, гистохимические, морфометрические и статистические методы исследования.

Результаты: В первой половине гестации у 21% (10 женщин) 1 подгруппы отмечался угрожающий самопроизвольный выкидыш, при этом 24 % пациенток были госпитализированы, 76% получили амбулаторное лечение. Во 2 и 3 подгруппе угроза прерывания беременности составили 10 (26%) и 7 (20,6%) соответственно. Большинство женщин -98 (82,3%), имели доношенную беременность, у 21 (17,6%) – произошли преждевременные роды. **Диагноз доношенный здоровый новорожденный имел место в 98 (82,4%). У 30 новорожденных (22,2%) отмечались перинатальные поражения**

Заключение: По данным ретроспективного анализа у беременных с положительным ВИЧ-статусом выявлен высокий показатель акушерских и неонатальных осложнений.

Ключевые слова: ВИЧ, беременность, акушерские осложнения, перинатальные исходы.

Bugungi kunda odamlardagi immuntanqislik virusi chaqiruvchi infektsiya muammosi profilaktika, tashxislash va yuqori samarali antiretrovirus terapiya(ART)ni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan muvofiqlash-tirilgan harakatlarga qaramay, jahon sog'liqni saqlash sohasida ustuvor muammo bo'lib qolmoqda. Jahonda OIV infektsiyasining homilador ayol organizmiga ta'sirini erta aniqlash, eng maqbul davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish va uni keltirib chiqaruvchi xavf omillarini bartaraf etishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmokda. Jumladan, OIV infektsiyasi bo'lgan homilador ayollarning tibbiy-ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash, ularda homiladorlik, tug'ruq, tug'ruqdan keyingi va neonatal davrlarni o'rganish, ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va perinatal asoratlarni bashorat qilish chora-tadbirlarining zamonaviy usullarini ishlab chiqish ilmiy-tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Мамлакатимизда соғлиқни саклаш тизими олдига ахолига кўрсатилаётган тиббий хизматлар сифатини ошириш ҳамда жаҳон андозаларига мослаштириш, жумладан, ОИВ инфекцияси билан омиладор аёлларни эрта аниқлаш, уларга ихтисослаштирилган тиббий ёрдам кўрсатиш бўйича чора-тадбирлар кенг амалга оширилиб, муайян ижобий натижаларга эришилмоқда. Ҳомиладорликни ОИВ инфекцияси фонида ўрганувчи тадқиқотчilar сурункали плацента етишмовчилиги частотасининг ошиши, ҳомила ўсишини чеклаш, муддатдан олдин туғруқ, қағоноқ пардаларининг муддатдан олдин ёрилиши, туғруқдан кейинги эндометрит, перинатал касалланиш ва ўлимнинг кўпайишини аниқладилар. Бироқ ҳозирда асоратларнинг частотаси ҳақида аниқ маълумотлар йўқ. Қарама-қарши фикрлар ва тадқиқотлар кам ўтказилганини ҳисобга олган ҳолда, ОИВнинг ҳомиладорлик ва перинатал асоратларнинг ривожланишига таъсирини ўрганиш, шунингдек, ушбу муаммоларнинг ечимини топиш замонавий акушерлик фанининг долзарб вазифалари хисобланади.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimi oldiga aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda jahon andozalariga moslashtirish, jumladan, OIV infektsiyasi bilan omilador ayollarni erta aniqlash, ularga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar keng amalga oshirilib, muayyan ijobjiy natijalarga erishilmoxda. Homiladorlikni OIV infektsiyasi fonida o'rganuvchi tadqiqotchilar surunkali platsenta yetishmovchiligi chastotasining oshishi, homila o'sishini cheklaش, muddatdan oldin tug'ruq, qag'onoq pardalarining muddatdan oldin yorilishi, tug'ruqdan keyingi endometrit, perinatal kasallanish va o'limning ko'payishini aniqladilar. Biroq ҳозирда асоратlarning chastotasi haqidada aniq ma'lumotlar yo'q. Qarama-qarshi fikrлar ва tadqiqotlар kam o'tkazilganini hisobga olgan holda, OIVning homiladorlik va perinatal асоратlarning rivojlanishiga ta'sirini o'rganish, shuningdek, ushbu muammolarining yechimini topish zamonaviy akusherlik fanining dolzarb vazifalari hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: OIV bilan kasallangan ayollarda homiladorlik, tug'ruq, tug'ruqdan keyingi va neonatal davrlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning material va usullari: Tadqiqotning ob'ekti sifatida Toshkent shahar OITS markazi va Toshkent shahar 1,8, 9-son tug'ruq komplekslariga murojaat qilgan 119 nafar OIV bilan kasallangan homilador ayollar olingan.

Tadqiqotda umumklinik, laborator, immunologik, maxsus akusherlik tekshiruvi, instrumental, umumiyl morfologik, morfometrik, gistokimyoviy va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan. OIVni dastlabki aniqlash ma'lumotlariga ko'ra, infektsiya davomiyligining ta'sirini aniqlash uchun retrospektiv tadqiqot guruhi 3 ta kichik guruhga bo'lingan: 1-kichik guruh - infektsiya davomiyligi 1 yildan kam bo'lgan 47 ta ayol; 2-kichik guruh - infektsiyaning davomiyligi 2 yildan 5 yilgacha bo'lgan 38 ta ayol; 3-kichik guruh - infektsiyaning davomiyligi 6 yil va undan ko'p bo'lgan 34 ta ayol. Barcha uchta kichik guruhda homiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrning xususiyatlari, shuningdek, laboratoriya ma'lumotlari tahlili (umumiyl qon tahlili, qonning biokimyoviy va koagulologik ko'rinishi, qin mikroflorasi holati) ustratovush va doppler o'chovlari bo'yicha perinatal natijalar, feto-platsentar tizimi holatining tahlili amalga oshirilgan.

Olingen natijalar : Ayollarning o'rtacha yoshi 17 yoshdan 44 yoshgacha diapazonida - $30,1 \pm 5,82$ bo'lgan. Retrospektiv guruhdagi bemorlar yoshiga qarab, quyidagicha taqsimlandi: erta reproduktiv yoshda – 17-25 yosh bo'lgan 27 nafar ayol (23%), optimal reproduktiv yoshda – 26 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan 61 nafar (51 foiz) ayol; OIV bilan kasallangan 31 ta ayol (26%) tegishli ravishda, kech reproduktiv yoshda - 35 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan.

Immuntanqisligi virusi bilan kasallangan homilador ayollar tug'ruq tarixining retrospektiv tahlili shuni ko'rsatdiki, OIV bilan kasallangan homilador ayollarning ko'pchiligi optimal reproduktiv yoshda bo'lgan, ammo shuni ta'kidlash kerakki, 35 yoshdan keyin ayollar orasida tug'ish funktsiyasini bajarishni xohlaydigan OIV bilan kasallangan ayollar soni sezilarli darajada katta. Ularning ko'pchiligi multigravida va multiparalar edi. Ularning aksariyati uy bekalari edi.

Homiladorlikning birinchi yarmida, 1 kichik guruhning 21% (10 ayollar) bemorlarda homila tushish havfi kuzatilgan, 24% gospitalizatsiya qilingan, 76% ambulatoriya sharoitida davolangan. 2 va 3 kichik guruhlarda homiladorlikni to'xtatish xavfi tegishli ravishda 10 (26%) va 7 (20,6%) tashkil etdi. 1 – kichik guruhdagi homilador ayollarning yengil va o'rtacha quishi 9 (19%) hollarda, 2 va 3 kichik guruhlarda -13 (34%) va 8 (23,5%) holatlarda tegishli ravishda kuzatilgan. Homiladorlikning ikkinchi yarmida 1 kichik guruhdagi 10 (21%) ayollar muddatdan oldin tug'ruq xavfi tahdid qilgani uchun kasalxonaga yotqizilgan. Gipertenziv buzilishlar 1 kichik guruhda 12 ayollarda kuzatilgan: 5 (13%) da turli darajadagi preeklampsiya, 7 (17%) ayolda homiladorlik bilan induktsiyalangan gipertensiya. Ikkinci kichik guruhda muddatdan oldin tug'ruq xavfi 9 (24%) hollarda, gipertenziv buzilishlar – 7 (18%) ayollarda: homiladorlik bilan induktsiyalangan gipertensiya – 5 (12%), preeklampsiya – 5 (13%). Uchinchi kichik guruhda, 9 (26%) ayollar muddatdan oldin tug'ruq xavfi bo'yicha davolangan, gipertenziv buzilishlar – 7 (20,5%) ayollarda kuzatilgan : homiladorlik bilan induktsiyalangan gipertensiya – 3(9%), preeklampsiya – 4 (10,5%) xolatlarda (jadval 1).

Ayollarning ko'pchiligi - 98 (82,3%) nafari to'liq muddatli homilador bo'lgan, 21 (17,6%)nafari muddatidan oldin tuqqan. To'liq muddatli sog'lom yangi tug'ilgan chaqaloqning tashxisi 98 ta (82,4%) holatda sodir bo'lgan. 30 ta yangi tug'ilgan chaqaloq (25,2%)da quyidagi asoratlar kuzatilgan: markaziy va periferik asab tizimi buzilishi - 15 (12,6%) ta holatda, bosh miya ishemiyasi - 7 (6%)ta, turli og'irlilik darajasidagi nafas olishining buzilishi sindromi - 15 (12,6%) ta holatda, homilaning ichki infitsirlanishining belgilari - 12 (10%)ta, tug'ma nuqsonlar - 1 ta holatda (yumshoq tanglayning yopilmasligi), muddatdan oldindi tug'ruq, konvulbsiv sindrom - 9 ta (7,5%), yangi tug'ilgan chaqaloqning vazni va homiladorlik muddati (kam vaznli chaqaloq) o'rtasidagi nomuvofiqlik - 22 (18,4%) ta holatda. Ikkala guruhda ham antenatal homila o'limi kuzatilmadi.

1-jadval

Ushbu homiladorlikning asoratlari (retrospektivik tahlil guruhi)

Aso rat-lar	1 kichik guruh n=47		2 kichik guruh n=38		3 kichik guruh n=34		1 ²	1	P ₁	2 ²	2	P ₂	3 ²	P ₃
	бс		бс.		бс									
Hom ila tushish havfi	0	1	0	6		0,6	,30	,586	0	,01	,940	0	,33	,568
Hom ila-dor ayollar -ning yengil va o'rtacha qusishi		9	3	4		3,5	,48	,115	0	,23	,633	0	,99	,320
Pree k-lampsiya		3				0,5	,39	,239	0	,37	,542	0	,79	,095
Hom ila-dorlik bilan induk- tsiyalan-gan giper-tenziya		7		3			,02	,879	0	,43	,511	0	,24	,622
BPH QB	4	1	8	7	0	9	,11	,735	0	,48	,489	0	,94	,331
Kam suv-lik/ko'p- suvlik	4	0	7	5	1	2	,03	,155	0	,06	,805	0	,16	,282
Yo'l- doshni oldinda yotishi							,53	,111	0				,84	,175
Mud dat-dan oldin tug'ruq xavfi	0	1		4		6	,07	,791	0	,30	,586	0	,07	,785

Izoh: P1, P2, P3 – mos ravishda, asosiy va qiyosiy, asosiy va nazorat, qiyosiy va nazorat guruhlari o'rtasidagi Pearson mezoniga ko'ra farqlar ishonchliligi

Xulosa: Tibbiy-ijtimoiy holatni o'rganish natijasida OIV infektsiyasiga chalingan homilador ayollarning asosiy qismi uy bekasi (68%), qonuniy nikohda bo'lgani (61%), ushbu homiladorlik rejalashtirilgani (60,5%) va takroriy (81,5%) ekanligi aniqlandi. Retrospektiv tahlil natijalariga ko'ra, OIV holati ijobjiy bo'lgan homilador ayollarda akusherlik va neonatal asoratlarning yuqori darajasi aniqlangan. OIV infektsiyasi bilan kasallangan homilador ayollarda homiladorlikning asoratlari: homiladorlik xavfi (23,5%), gipertenziv kasalliklar (22%), yangi tug'ilgan chaqaloqlarning vazni va bo'yи ko'rsatkichlarining homiladorlik muddatiga mos kelmasligi (18%) va muddatdan oldingi tug'ruq (17,6%) bo'lgan Neonatal kasalliklar orasida markaziy asab tizimining buzilishi (12,5%), konvul'siv sindrom (6%) va nafas olish sindromi yetishmovchiligi (12,5%) mavjud. OIV infektsiyasi puerperal davrga statistik jihatdan sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Белоцерковцева Л.Д., Коваленко Л.В., Тифнанц Н.А., Каспарова А.Э. Морфофункциональные изменения в плаценте у пациенток с ВИЧ при вирусном поражении детей инфекцией // Вестник Новогородского государственного университета – 2018.- № 6 (112) С.4-8

2. Индиаминова Г.Н. Влияние Covid-19 На Состояние Системы Гемостаза У Беременных В Разных Триместрах. Исследовательский журнал по изучению травм и инвалидности.2,3(апрель2023),С.95-98. <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/680>.

3. Макацария А.Д., Бицадзе В.О., Хизроева Д.Х., Хамани И.В. Плацентарная недостаточность при осложненной беременности и возможности применения дипиридамола. Акушерство, гинекология и репродукция. 2016; 4: 72-82
4. Мозалева О.Л., Самарина А.В. Особенности течения беременности и родов у ВИЧ-инфицированных женщин // Журнал акушерства и женских болезней. 2021. Т. 70. № 3. С. 103–113. DOI: <https://doi.org/10.17816/JOWD48672>
5. Ниаури Д.А., Колобов А.В., Цинзерлинг В.А., Гзгзян А.М., Джемлиханова Л.Х., Колобова О.Л., Хубулава Н.В. Плацента человека как эпидемический фактор риска вертикальной передачи ВИЧ в условиях коморбидности // ВИЧ-инфекции и иммуносупрессии. 2016. Т. 8, № 4.С. 7–16.
6. Сафарова Л. А. Акушерские и перинатальные исходы у женщин с ВИЧ // Доктор ахбортономаси. -2022. № 2.2 (104). С. 18–21. DOI: 10.38095/2181-466X-20221042-18-20
7. Indarti J, Yunihastuti E, Kurniati N, Aprilia B, Pamungkas DT, Chiprion AT, Ginting MA, Rizal S, Dewi C, Handayani L. Pregnancy profile and infant outcomes among hiv infected women who delivered in cipto mangunkusumo hospital. Acta Med Indones. 2020 Jan; 52(1):55-62.
8. Яценко Д.С. Течение беременности, родов и состояние новорожденных у женщин, инфицированных ВИЧ – инфекцией. Bulletin of Medical Internet Conferences (ISSN 2224-6150) 2015. Volume 5. Issue 5. P.448
9. Kattakhodjaeva M.H. , Rakhmanova N.H.// Influence of hormonal injectable contraception on health condition of women of different reproductive age Higher Education / The Ninth EuropeanConference on Biologyand Medical Sciences «East West» Association for Advanced Studies Vienna, Austria, 2016.-P.51-55
10. Shukurov, F., Sattarova, K., & Razzakova, N. (2024). International scientific and practical conference «Endoscopic surgery in gynecology and reproductive medicine» : International Experience and Development Perspectives. Journal of education and scientific medicine, 1(2), 1-264. <https://doi.org/10.61934/jesm.v2i2.779>
11. Safarov Aliaskar Tursunovich, Abdullayeva Lagiya Mirzatullayevna, Safarova Lola Aliaskarovna, Assessment of the impact of HIV infection on the course of gestation, childbirth and the postpartum period, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2022, vol. 3, issue 4. pp.65-67 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7420945>
12. Trindade L, Nogueira LMV, Rodrigues ILA, Ferreira AMR, Corrêa GM, Andrade NCO. HIV infection in pregnant women and its challenges for the prenatal care. Rev Bras Enferm. Jan. 2021;74:e20190784. <https://doi.org/10.1590/0034-7167-2019-0784>
13. Zakirova Nodira Islamovna, Juraeva Fariza Farmonovna, Safarova Lola Aliaskarovna Application of the cryodestruction method in the treatment of cervical diseases in the reproductive age, Journal of reproductive health and uro-nephrology research. 2021, vol. 2, issue 1. pp.22-24 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0990-2021-1-5>